

TA'LIM SHAKLI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10143984>

Musurmonova Dilshoda Dadajon qizi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlatimiz tomonida eng katta e'tibor qaratilyotgan sohalardan biri ta'lim sohasi hamda ta'lim shakllari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Ta'lim, jamiyat, A. Komenskiy, sinf, dars, metod, pedagog, bolalar, ta'lim shakllari.

Ta'lim insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki paytlaridayoq katta rol o'ynagan. Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va Shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi. Ya. A. Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham g'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi. Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon mamlakatlariga tadbiiq etilmadi. Ularda 1917 yilga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi (shakli) davom etib keldi. Ushbu maktablarda 6 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarga bir xonada bir vaqt maboynida mashg'ulot olib borilardi. Shu boisdan bolalarning bilim darajalari va o'zlashtirishi ham turlicha bo'lar edi. O'zbek maktablari oktyabr to'ntarishidan keyin sinf-dars tizimiga o'tdi. Hozirgi davrgacha guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va Shuncha vaqt maboynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

Ta'limni tashkil etish shakli - bu ta'lim jarayonini alohida zvenosini konstruksiyasi, mashg'ulotning aniq turi hisoblanadi.

Mamlakatimizda eng katta investitsiya ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibor bu xalqimizning ko'zlagan oliy maqsadlaridan biridir. Davlatimiz rahbari Murojaatnomasining ikkinchi yo'nalishi aynan ta'lim sohasiga

yo'naltirilgan. Farzandlarimizning shaxs bo'lib kamol topishida sifatli ta'lim-tarbiyaning o'rni nechog'lik beqiyos ahamiyatga ega ekanini mustaqilligimizning o'tgan yigirma besh yili davomida barchamiz angladik. Zero, sobiq mustabid tuzum davrida insonga shunchaki ishchi kuchi sifatida qaralib, uning intellektual salohiyatini oshirishga, iqtidorini to'liq ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratilmasdi. Shu bois 11 yillik maktab ta'limini olgan yigit-qizlarning sanoqli qismigina oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilinadi, qolgani yoshligini kolxoz ishlariga andarmon bo'lib o'tkazar edi. Baxtimizga, yurtimiz mustaqil bo'lib, farzandlarimiz uchun ulkan imkoniyatlar eshigi ochildi. Eng avvalo, maktab ta'limiga alohida e'tibor qaratilib, o'quvchilarning puxta bilim va tarbiya olishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan, Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi 1841 ta ta'lim muassasasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari, o'quv jihozlari hamda boshqa zarur moddiy ashyolar bilan ta'minlangani ta'lim jarayonining samarali kechishini, o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlari mazmunli o'tishini taminlayapti. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash haqida so'z ketarkan, dastavval yaroqsiz holatga kelgan maktab binolarini yangidan qurish, mavjudlarini zamonaviy ta'lim standartlari va sanitariya-gigiyena talablariga mos tarzda kapital rekonstruksiya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Yurtimiz bo'ylab har yili Investitsiya dasturi asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı bunyodkorlik jarayonidan bizning ta'lim muassasalarimiz ham chetda qolmayapti. Jumladan, bu yil mazkur dasturga binoan viloyatimizdagi 54 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Ilgari majburiyat yuzasidan maktabga kelgan o'quvchilarning bugun qadrdon ta'lim maskani sari talpinishi butkul o'zgacha. Shaharu qishloqlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shgan binolar ichida muhtasham maktablarimiz alohida qo'r to'kib turganini ko'rib, dildan o'tganini ifodalashga til ojizlik qiladi. Bugun o'g'il-qizlarimiz ta'lim-tarbiya olayotgan maktablarni dunyoning uncha-buncha davlatida uchratmaysiz. Yil sayin o'qitish sifati va mazmunini oshirishga qo'yiladigan talablar qat'iylashib, pedagoglar tarkibini mahoratli, yuqori bilim va saviyaga ega o'qituvchilar bilan to'ldirishga intilayapmiz.

So'nggi yillarda ta'lim sohasiga, xususan, uning ajralmas qismi hisoblangan o'qituvchilarga bo'lgan e'tibor, shubhasiz, ancha o'zgardi. Shuning uchun ham bugungi kunda bu kasbni egallashni xohlovchi yoshlar soni kundan-kunga oshib bormoqda. Maqolamiz uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi, muhimligi va ahamiyati shu jarayon bilan bevosita bog'liq. Xorijda ta'lim sohasiga va o'qituvchilarga berilayotgan e'tibor bilan o'zimizdagi imkoniyatlarni solishtirgan

holda shuni aytishimiz mumkinki, bizning ta`lim tizimimiz ko`zlangan maqsadlarga erishish uchun hali ancha qadamlar bosishi kerak. Bu yo`lda o`qituvchi-pedagoglarga bo`lgan hurmat va ularning jamiyatdagi o`rnining yanada yaxshilanishi juda muhim omil hisoblanadi. Fikrlashimizcha, mazkur tamoyil ta`lim tizimimiz rivojlanishining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi

Mamlakatimizda ko`plab ta`lim maskanlari qurilib, iqtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilmoqda. Davlatimiz rahbari "Prezident maktablari boshqa muassasalar uchun andoza bo`lishi, ta`lim muhitini o`zgartirishi"ni aytgan edi. Shunday bo`ldi ham. Jamiyatimizda ilmga intilish kuchaydi. Farzandini yaxshi o`qitaman degan ota-onalar, o`qishga qiziqqan yoshlar ko`paydi. 2019-yilda yurtimizda 271 ta iqtisoslashtirilgan maktablar bor edi. Va bularning aksaryati shahar joylarida barpo etilgan. Xo`sh unda qishloqlardachi? -degan savollar faqatgina qishloq aholisi uchun qiziq. Insonning qobilyati tug`ma bo`ladi. U sharoit taqazosi bilan yo rivojlanadi, yoki butkul yo`qoladi. Negaki siz har kuni ichida bo`ladigan hayotingiz va atrofdagi shar-sharoitlar natijasida muhitga moslashish ko`nikmasini paydo qilasiz. Mamlakatimizning chekka-chekka xududlarida joylashgan maktablar ham aslida shahar maktablariidan aslo kam emas. Lekin ko`rsa ko`ngilni xira, dilni siyoh qiladigan vayrona maktablardan ham holi emas. Prezidentimizning tashabbusi bilan bu kabi maktablarning sonini kamaytirishga astoydil bel bog`lagan viloyat va tuman hokimlari ham aravani quruq olib qochganicha yo`q. Rivojlanishni va taraqqiy etishni hoxlagan mamlakatning taqdiri ana o`sha maktabga borgunicha loyga botgan bolaning qo`lida bo`lishi mumkin. Vaholanki shunday ekan biz yuqorida nomini "vayrona" deb tilga olgan maktablarga ham bir ko`z qirimizni tashlab qo`ysak yomon bo`lmasmidi. Qolaversa o`quvchilarni ta`lim dasturiga uyg`unlashgan zamonaviy darsliklar bilan ta`minlash ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda siz hox shahar sharoitida o`qing hox qishloq sharoitida o`qing, muhimi iste`dotingiz. Siz shu qadar iste`dotli, davlatga manfaati tegadigan inson bolingki, sizni ko`kka ko`tarmasdan iloji bo`lmasin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.- T."Sano standart" nashiriyoti. 2017.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. Ziyoyev, Tanlangan asarlar, T., 1974; O'zbekistonning yangi tarixi, Ikitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], T., 2000; Markaziy Osiyo XX

asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustamlakachilik uchun kurash, T., 2001.

4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

5. Тураев, Б., Эранов, Н., Эранов, Ш., & Гафуров, Ф. (2018). Эффективности использования при осколочном раздробленном переломе дистального конца плечевой кости с помощью. Журнал проблемы биологии и медицины, (4 (104), 113-114. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/problems_biology/article/view/2719

6. Ходжанов, И. и Гафуров, Ф. 2021. Опыт применения внутрикостного остеосинтеза при разрывах связок дистального межберцового синдесмоза. Общество и инновации. 2, 4 (авг. 2021), 123-126. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4-pp123-126>.